



Sariosiyo tumanida Xitoy kompaniyasi alyuminiy radiatorlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi



Xitoy davlatida bo'lib turgan Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov kuni-kecha Shinjon-Uyg'ur avtonom rayonida Cheng Zhi To Xay savdo va tijorat kompaniyasi bosh direktori Vang Yingzhao bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda kompaniya bilan Surxondaryoda yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish yuzasidan muzokaralar o'tkazildi. Viloyatimizning investitsion salohiyati taqdimot qilindi.



O'tkazilgan muzokaralar yakunida Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida alyuminiy radiatorlar va alyuminiy mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirishga kelishib olindi. Erishilgan kelishuvga ko'ra loyihani qurish ishlari joriy yil mart oyidan boshlanadi.



Shuningdek, tashrif davomida SHUARda Surxondaryo viloyatining savdo vakolatxonasini ochish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Unda viloyatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlar savdo yarmarkasining doimiy faoliyati tashkil etiladi.